

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MUSIQA MADANIYATI FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH
TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MUSIQA MADANIYATI FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Hujjat musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini xolis, ishonchli va ilmiy asoslangan holda baholash uchun mo‘ljallangan test topshiriqlarining mazmuni, tarkibi, baholash tamoyillari, test shakllari hamda texnik tavsiflarini belgilaydi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish, aprotatsiya qilish va amaliyotga joriy etish jarayonlari uchun metodik asos hisoblanadi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tinglash va ijro madaniyati faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi, musiqa madaniyati fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda

yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi musiqa madaniyati fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari musiqa savodi, musiqiy janrlar, musiqiy cholg'ular, musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1.Musiqa savodi		
1.1. Musiqa savodi	- musiqa savodi va nazariyasini bilish ; - alteratsiya belgilarini bilish; - alteratsiya belgilarini farqlay olish; - tovushlar engarmonizmini bilish; - tovushlar engarmonizmini farqlay olish; - tovush cho'zimini uzaytiruvchi belgilarni aniqlay olish; - musiqa o'lchovlarini farqlay olish; - templarni bilish; - intervallarni aniqlay olish; - lad pog'onalarini bilish; - tonalliklarni aniqlay olish - uchtovushlik tuzilishini aniqlay olish; - dominantseptakkord tuzilishini aniqlay olish; - xalq ladlarini bilish.	13
2. Musiqiy janrlar		
2.1. Musiqiy janrlar	- musiqiy janrlarning turlarini bilish va farqlash; - musiqiy janrlarning turlarini farqlay olish;	4

	- janrlar orasidagi o'xshashlik topa olish; - janrlar orasidagi farqlarni topa olish.	
3. Maqom san'ati		
3.1. Maqom san'ati	– maqom san'atini bilish; – maqom turlarini bilish; – maqom bo'limlarini bilish; – maqom bo'limlarini farqlay olish; – maqom kuylarini bilish; – maqom kuylarini tahlil qilish.	6
4. Bastakorlik va kompozitorlik ijodi		
4.1. Bastakorlik va kompozitorlik ijodi	– o'zbek bastakorlarini bilish; – rus kompozitorlarining hayoti va ijodini bilish; – rus kompozitorlarining asarlarini bilish; – xorij kompozitorlarini bilish; – xorij kompozitorlarining asarlarini bilish; – o'zbek bastakorlarini asarlarini farqlay olish; – rus kompozitorlar asarlarini tahlil qilish; – rus kompozitorlarining asarlarini aniqlay olish; – xorij kompozitorlarini farqlay olish; – xorij kompozitorlarining asarlarini tahlil qilish.	5
5. Sharq xalqlarining mumtoz musiqasi		
5.1. Sharq xalqlarining mumtoz musiqasi	– sharq xalqlarining mumtoz musiqasini bilish; – sharq xalqlarining cholg'ularini bilish; – sharq xalqlarining janrlarini bilish; – sharq xalqlarining mumtoz musiqasini farqlay olish; – sharq xalqlarining cholg'ularini taqqoslay olish; – sharq xalqlarining janrlarini farqlay olish.	5
6. Musiqa cholg'ulari		
6.1. Musiqa cholg'ulari	– musiqa cholg'ularining nomlarini bilish; – cholg'ularining guruhlarini aniqlay olish; – cholg'ularining registrini aniqlay olish; – cholg'ularining guruhlarini farqlay olish.	5
7. Dirijorlik		
7.1. Dirijorlik	– dirijorlik sxemalarini bilish; – dirijorlik texnikasi va taktik usullarini tushunish;	1 ta

	– amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llay olish; – o‘lchovlarni aniqlay olish.	
8. Xor san’ati		
8.1. Xor san’ati	– xordagi ovoz diapazonlarini farqlay olish; – xor ovozlarni tahlil qilish.	1 ta
	Jami	40 ta

**Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun
sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti**

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT	10 ta
-----------------------------	--------------

1.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim paradigmalari (an'anaviy - konservativ, ratsionalistik (bixevioristik), fenomenologik (gumanistik), texnokratik va ezoterik)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari(yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, –nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma'ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an'anaviy dars, noan'anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, faoliyatini monitoring qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perseptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	10
--------------------------------------	---	-----------

1.2. Musiqa madaniyati o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
---	--	---

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir asosiy dalillar, qonunlar, ta'riflar, formula va hodisalarni yoddan bilish, tanish, esga olish.	22
2	Qo'llash	Dalil va qonunlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, nota matnlarni, musiqiy parchalarni, audioyozuv, ritmik shakl, kuy namunalarni tahlil qilish.	23
3	Mulohaza qilish	Notanish vaziyatda qo'llash, tahlil–sintez, sabab–oqibat bog'lanish, izohlash, baholash, moslashtirish.	5

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Musiqa madaniyati fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Musiqa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. U. U. Mirzaxmedov, N. P. Cheryomuxina, A. M. Abdullayev. 2024. Novza
2. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri S. Begmatov, "G'afur G'ulom ijodiy uyi" 2017.
3. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'g'ri nashri, Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov, "G'afur G'ulom" 2017.
4. "O'zbek musiqa tarixi". S. Begmatov Toshkent-2018 "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018
5. "Musiqa tarixi". O. A. Ibrohimov, G'. M. Xudoyev Toshkent - 2018 "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil
6. "Musiqaning elementar nazariyasi" Qadamboy Rahimov "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2007
7. "Maqom asoslari" Oqilxon Ibrohimov Toshkent "Yuron-Iqbol"- 2018
8. "Xorijiy musiqa adabiyoti" A.X.Trigulova Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2008
9. "Rus musiqa tarixi" Lola Urmanova "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2011
10. " Musiqa nazariyasi" V. Vaxromyev 1962

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O'., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innavatsiya-ziyo" nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta'limda baholash va monitoring asoslari. O'quv- uslubiy qo'llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.